

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI DARSLARIDA TIL KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI METODLARI

Turganbekova Gulsiyma Ziyuarbek qizi

Ájiniyaz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Anotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishning samarali metodlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kommunikativ yondashuv, o'yin texnologiyasi, matn bilan ishlash va tanqidiy fikrlashga asoslangan topshiriqlarning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. 3-sinf o'quvchilari bilan olib borilgan kuzatuv natijalari ushbu metodlarning o'quvchilarning nutq faolligi, lug'at boyligi va grammatik savodxonligini oshirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Maqolada til kompetensiyasini kompleks rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, ona tili darsi, til kompetensiyasi, kommunikativ yondashuv, o'yin texnologiyasi, matn bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, nutq rivoji.*

Abstract: *The article examines effective methods for developing language competence in primary school students during mother tongue lessons. The pedagogical potential of the communicative approach, game-based learning, text-based activities, and critical thinking tasks is analyzed. The results of classroom observations conducted in the 3rd grade showed that the use of these methods increases students' speech activity, expands vocabulary, and reduces grammatical errors. The paper provides practical recommendations for the comprehensive development of language competence.*

Keywords: *primary education, mother tongue lesson, language competence, communicative approach, game-based learning, text work, speech development.*

Аннотация: *В статье рассматриваются эффективные методы развития языковой компетенции учащихся начальных классов на уроках родного языка. Освещаются педагогические возможности коммуникативного подхода, игровых технологий, работы с текстом и заданий, основанных на критическом мышлении. Результаты наблюдений, проведённых в 3-классе, показали, что применение данных методов способствует повышению речевой активности учащихся, расширению словарного запаса и снижению количества грамматических ошибок. В статье представлены практические рекомендации по комплексному развитию языковой компетенции.*

Ключевые слова: *начальное образование, урок родного языка, языковая компетенция, коммуникативный подход, игровые технологии, работа с текстом, развитие речи.*

Zamonaviy ta'lim tizimi boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqning sust rivojlanishi, lug'at boyligining cheklanganligi va mustaqil fikr bayon qilishdagi qiyinchiliklar dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Hozirgi ta'lim tizimining asosiy maqsadi - funksional savodxon, tanqidiy fikrlaydigan, o'z fikrlarini erkin va aniq yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdir. Bu talab boshlang'ich sinfdagi ona tili darsidan boshlanishi kerak.

Chunki ona tili bolaning gapirish, tinglash, yozish va o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradigan asosiy fan hisoblanadi[3]. Zamonaviy yondashuv shuni ko'rsatadiki, o'quvchi shunchaki ma'lumot yig'uvchi emas, balki bilimni amaliy muloqotga tatbiq eta oluvchi shaxs bo'lishi shart.

Bu kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelini rivojlantirishning asosiy tamoyilidir[1]. Shu nuqtayi nazardan, ona tili darslarida o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirish bu o'quvchining funksional savodxonligini oshirish, shaxsiy rivojlanishini ta'minlashning dolzarb mexanizmidir.

Ona tili - o'quvchining kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosi. Shu munosabat bilan til kompetensiyasini rivojlantirish va unga yangiliklar kiritish masalasi asosiy e'tiborda bo'lishi kerak.

Til kompetensiyasi o'quvchining (so'zlash, yozish, o'qish va tinglash) orqali til me'yorlarini o'zlashtirishi va ularni muloqotda qo'llay olishi va u quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Leksik kompetensiya - lug'at fondini bilish va undan to'g'ri foydalanish malakasi.

Grammatik kompetensiya - tilning grammatik tuzilmalarini o'zlashtirish.

Diskursiv kompetensiya - matn yaratish va uni mantiqiy jihatdan davom ettirish.

Sotsiolingvistik kompetensiya - til birliklarini ijtimoiy muhitga mos qo'llash.

Bu komponentlarni yaxlit holda o'zlashtirish bu o'quvchining til rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikativ til o'qitish aslida tilning asosiy to'rt ko'nikmasini (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) chin munosabatda muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. O'qituvchi topshiriqlarni "haqiqiy" kontekstda tuzadi, masalan, do'konda xarid qilish jarayonini sahnalashtirish kabi yoki boshqa.

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim har bir topshiriq ma'lum bir ko'nikmani (leksik, grammatik, diskursiv, ijtimoiy) rivojlantirishni maqsad qiladi. O'quvchi har bir modulning oxirida aniq mezonlar bo'yicha o'z natijasini baholay oladi[2].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik-pedagogik xususiyatlari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining til rivojlanishini hisobga olib, ularning yosh xususiyatlarini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas:

6-10 yoshli bolalar ko'rgazmalilikka, o'yinga, qiziqishga moyil;

til va kognitiv ko'nikmalar shakllanish bosqichida bo'ladi;

xotira, diqqat, mantiqiy fikrlash ko'nikmalari endi rivojlanyapti;

diqqat barqaror emas, lekin qiziqish yuqori;

takrorlash va tajriba orqali til materialini yaxshi o'zlashtiradi.

Shuning uchun ona tili darslarida metodik yondashuvlar bolaning yosh xususiyatlari va rivojlanish bosqichlariga mos ravishda tanlanishi kerak deb hisoblanadi[4].

O'yin texnologiyasini qo'llash.

Lug'at boyligini oshirish o'yinlari: "So'z toping", "Sinonim-antonim", "Qaysi so'z ortiqcha?".

Grammatik o'yinlar: "Gap tuzing", "Javobini toping", "Tez javob bering".

Rolli o'yinlar: kichik dialoglar, sahna ko'rinishlari orqali nutq harakatini takomillashtirish.

Matn bilan ishlash.

Matn til aloqasining asosiy birligidir. Matn bilan ishlash til kompetensiyasini yaxlit rivojlantirishga imkon beradi.

Matnni to'ldirish, davom ettirish - matnni to'ldirish va davom ettirish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish va bog'lanishli mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Matndan asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish - matnning asosiy fikrini aniqlash asosiy ma'lumotni ajratib ko'rsatish ko'nikmasini shakllantiradi.

Savollar berish va ularga javob berish - matn bo'yicha savollar ustida ishlash asar mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Matnga sarlavha qo'yish, qahramonlarga tavsif berish - matnning sarlavhasi uning asosiy g'oyasini yoki muammosini aks ettirishi kerak.

Qisqacha bayon qilish va o'z fikrini yozma ravishda ifodalash - matnning asosiy mazmunini uning asosiy g'oyasi va mantiqiy izchilligini saqlagan holda ixcham shaklda ifodalashdir.

Tanqidiy fikrlashga asoslangan topshiriqlar.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning tahliliy, qiyosiy va xulosa chiqarish qobiliyatini oshiradi.

"Nima uchun?", "Nega?" savollaridan foydalanish;

Taqqoslash va guruhlash topshiriqlari;

Syujet chizig'ini o'zgartirib ko'rish;

Kichik esse yozish (og'zaki va yozma);

O'z nuqtayi nazarini isbotlash uchun topshiriqlar.

Tadqiqot ishlari 3-sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. Tajriba jarayonida rolli o'yin va matn asosida ishlash metodlari qo'llanildi. Kuzatuv natijalari o'quvchilarning nutq faolligi oshgani, grammatik xatolar kamaygani va lug'at boyligi kengayganini ko'rsatdi. Bu metodlarning til kompetensiyasini rivojlantirishda samarali ekanligi kuzatildi.

O'tkazilgan pedagogik tajribamiz shuni tasdiqladiki, interfaol usullardan foydalanish an'anaviy darslarga qaraganda yuqori ekanligini ko'rsatdi. Quyidagi jadvalda tajriba-sinov ishlari natijalari foiz ko'rsatkichlarida keltirilgan:

Ko'rsatkichlar	Tajribadan oldin (%)	Tajribadan keyin (%)	O'sish ko'rsatkichi
Lug'at boyligi va so'z qo'llash	62	84	+22
Grammatik xatolarning kamayishi	55	78	+23
Nutqiy faollik va mustaqil fikr	48	81	+33

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida til kompetensiyasini rivojlantirish tizimli yondashuvni talab qiladi. Tajriba-sinov ishlari davomida o'yin elementlarini matn tahlili bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning muloqotga kirishish qobiliyatini keskin oshirdi. Bu esa o'z navbatida kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelining samaradorligini kafolatlaydi.

Ko'rgazmali va axborot texnologiyalari.

Zamonaviy vositalar o'quvchilarning tilni qabul qilishini osonlashtiradi va dars samaradorligini oshiradi.

Interfaol doska, videomateriallar, audiomatnlar orqali tinglab tushunish va tahlil qilish;

Onlayn o'yinlar va topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlash;

O'qituvchining kasbiy mahorati.

Til kompetensiyasini rivojlantirishda o'qituvchining roli alohida. O'qituvchi: Ona tili darslarida til kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.

Bolalar bilan ochiq, erkin, qulay til muhitini yarata olishi kerak;

Metodik vositalarni tizimli, maqsadga muvofiq qo'llashi kerak;

Differensial o'qitish va o'quvchini faol ishga jalb qilishni o'zlashtirishi kerak.

Baholash va refleksiya.

Formativ baholash orqali doimiy fikr-mulohaza berish;

O'z-o'zini baholash va mustaqil refleksiyaning joriy etish;

Til ko'nikmasining aniq ko'rsatkichlarini aniqlash (masalan, gap tuzish, nutq madaniyati, yozma savodxonlik).

Umuman olganda, ona tili mashg'ulotlarida til kompetensiyasiga e'tibor qaratish – ertangi kunning savodli va fikrini erkin bayon qila oladigan avlodini tarbiyalashda b osh omildir.

Buning uchun darsning mazmuni qiziqarli, strukturasi tizimli, metodikasi samarali bo'lishi kerak. O'yin, matn bilan ishlash, axborot texnologiyalari, tanqidiy fikrlash - bu jarayonga ta'sir etuvchi asosiy vositalardir.

O'qituvchining mahorati va ta'lim muhitining qulayligi ham muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyasi, matn asosida ishlash va tanqidiy fikrlash elementlarini integratsiyalashgan holda qo'llash o'quvchilarning til kompetensiyasini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi[5].

Bu esa kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelining samaradorligini oshiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Құдайбергенова К. “Құзыреттілік тәсіл – білім беру сапасын арттырудың жаңа бағдары”, Алматы: РБК, 2010.
2. Жанпейісова М.М. “Модульдік оқыту технологиясы”, Алматы: 2006.
3. Қалиев С., Қазыбаев С. “Тіл дамыту әдістемесі”, Алматы: Мектеп, 2008.
4. Момынова Б. “Қазіргі қазақ тілі: оқыту әдістемесі”, Алматы: Қазақ университеті, 2015.
5. Ы.Алтынсарин атындағы ҰБА. “Бастауыш сыныптарға арналған тілдік құзыреттілікті дамыту әдістемесі”, 2020.